

**MUSTQIL TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK MAQSADLARNI
ANIQLASHDA BLUM TAKSONOMIYASINING O’RNI**

Suyarov Akram Musayevich

*PhD, dotsent. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Axborot
texnologiyalari kafedrası mudiri*

akramsuyarov@mail.ru

Erdonova Nigina Akramovna

O’zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti 3-kurs talabasi

Annotasiya. Taksonomiya tuzish pedagoglar faoliyati camaracini oshirishning muhim omillaridan biri bo’lib hisoblanadi. Ular bu usulni qay darajada tezroq egallasalar, o’quv mashg’ulotlarini ilg’or tajribalari bilan jadallashtirishga o’z hissalarini qo’shgan bo’ladilar.

Kalit so’zlar: Pedagogik texnologiya, Pedagogik maqsad, modernizasiya, raqamli texnologiyalar Identiv maqsad.

Taksonomiya tuzish pedagoglar faoliyati samarasini oshirishning muhim omillaridan biri bo’lib hisoblanadi. Ular bu usulni qay darajada tezroq egallasalar, o’quv mashg’ulotlarini ilg’or tajribalari bilan jadallashtirishga o’z hissalarini qo’shgan bo’ladilar.

B.Blum rahbarligida ishlab chiqilgan o’quv maqsadlari taksonomiyasi butun jahon pedagogikasida keng tarqalgan [1]. U yaratgan o’quv maqsadlari taksonomiyasi bilishga oid soha sferasiga tegishlidir. Unda bilim olish jarayoni: 6 ta, ya’ni bilish, tushunish, qo’llash, tahlil, sintez va baholash toifalarga ajratib ko’rsatiladi. Ularning har biri uchun alohida bilish jarayonlari mazmuni ishlab chiqilgan. Bilim olish jarayoni darajalarining saralanish va joylashtirish ketma-ketligini kuzatar ekanmiz, taksonomiya yaratuvchilari intellektual faoliyatning barcha toifalarini to’laroq va aniqroq qamrab olishga intilganliklarini anglash mumkin.

Bu eca taksonomiya o’quv maqsadlarining faqat axborot berishga asoslangan odatdagi usulda belgilashga nisbatan takomillashgan, ilg’or usul ekanligidan dalolat beradi.

Pedagogik texnologiya tarafdorlari taklif etgan o’quv maqsadlarini aniqlash usuli, o’zining yuqori darajadagi aniqlashtirish imkoniyatiga ega bo’lishi bilan ajralib turadi. O’quv maqsadlari ta’lim oluvchilarning ishonchli o’lchash va

tashqaridan kuzatish mumkin bo‘lgan xatti-harakatida ifodalanib, ular o‘qitish natijalarini anglatadi. Shu bilan birga, ularning bu xatti-harakatlarini pedagog aniq kuzatib baholashi ham mumkin bo‘ladi. Bunda o‘quv maqsadlarining shunday tizimini yaratish kerakki, uning ichida o‘quv maqsadlarining toifalari va darajalari ketma-ketligi aniq belgilangan bo‘lsin, hamda o‘quv maqsadlarini ifodalash uchun shunday aniq va tushunarli tilni topish kerakki, pedagog bu til orqali maqsadlarni aniq ifodalaydigan bo‘lishi lozim. O‘quv maqsadlarini belgilashga bunday aniqlik kiritish, pedagogik texnologiyaning odatdagi o‘qitish usullaridan tubdan farq kiluvchi dactlabki, muhim jihatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘quv maqsadlarini aniq belgilanishi, unga erishganlikni yaqqol nazorat qilishga imkon beradi. Bu eca o‘z navbatida, ta’lim oluvchi shaxcini rivojlanib borayotganlik darajacini hamda pedagog faoliyatidagi kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf qilish demakdir.

Pedagogik maqsadlarni aniqlashga uch xil yondashish mumkin.

1-jadval.

Pedagogik maqsadlarni aniqlashga yondashuv

Birinchi yondashuv	Pedagogik maqsadlar bir yoki bir necha o‘quv maqsadlari tavsifi orqali ifodalanadi, lekin ular turkumlarga ajratilmaydi
Birinchi yondashuv	O‘quv maqsadlari turkumlarga ajratilib, ularni yozma tafsiloti bayon etiladi. Pedagogikada keng qo‘llanilayotgan, mashg‘ulotning ta’lim berish, tarbiyalash va shaxsni shakllantirish maqsadlarini belgilash bunga yaqqol misol bo‘lishi mumkin. O‘quv maqsadlari bu usulda ifodalanganda, maqsadlar o‘zaro taqqoslashga qulay bo‘lib, faoliyatning bu maqsadlarga erishishga yo‘nalganligi ta’minlanadi, lekin, ularga erishganlik haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish uchun imkoniyat bo‘lmaydi.
Uchinchi yondashuv	O‘quv maqsadlari turkumlarga ajratilib, ularni yozma tafsiloti bayon etiladi. Pedagogikada keng qo‘llanilayotgan, mashg‘ulotning ta’lim berish, tarbiyalash va shaxsni shakllantirish maqsadlarini belgilash bunga yaqqol misol bo‘lishi mumkin. O‘quv maqsadlari bu usulda ifodalanganda, maqsadlar o‘zaro taqqoslashga qulay bo‘lib, faoliyatning bu maqsadlarga erishishga yo‘nalganligi ta’minlanadi, lekin, ularga erishganlik haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish uchun imkoniyat bo‘lmaydi.

O‘quv maqsadlari tizimini yaratib, o‘zaro bog‘liqlik ketma-ketligida joylashtiriladi, ya’ni ularning taksonomiyasi tuziladi. Maqsadlar taksonomiyasi, ya’ni maqsadlarni tanlashda osonlikdan qiyinlikka yoki soddalikdan

murakkablikka prinsipi qo‘llaniladi. Taksonomiya tushunchasi ob’ektlarning tabiiy bog‘liqlari va xususiyatlariga qarab ko‘p bosqichli tuzilishi asosida klassifikatsiyalash va tizimlashni anglatadi. Shuning uchun umumiy maqsadlarni bir-biri bilan bog‘lanishda tanlash va o‘qitishning aniq natijalarini ifodalashda taksonomiyalardan foydalaniladi. O‘quv maqsadlariga muvofiq bo‘lgan shaxs faoliyati sohalari qo‘yidagi jadvalda tavsiflab o‘tilgan.

2-jadval .

Shaxs faoliyati sohalari

Soha	Soha	Mohiyati
Kognitiv	Bilishga oid	Bu o‘qilgan materialni eslab qolish va uni takroran aytib berishdan boshlab, to o‘zlashtirilgan bilimlarni to‘la anglab, ularni oldin o‘rganilgan g‘oya, uslub va harakat usullari bilan uyg‘unlashtirib tasavvur etish hamda bilimlarni egallashgacha bo‘lgan muammolarning hal etilishini o‘z ichiga oladi. B.Blumning ta’kidlashicha, pedagoglar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijasida adabiyotlar tahlili, dasturlar, mashg‘ulotliklar, mashg‘ulot berish amaliyotidagi o‘quv maqsadlarining aksariyati kognitiv sohaga tegishli bo‘lishi aniqlangan. Kognitiv sohada yaratilgan taksonomiyalarni taqqoslash bilan, bu sohada B.Blum taksonomiyasidan mukammalrog‘i yaratilmaganligini alohida e’tirof etish lozim.
Psixomotor	Harakatga oid	Bu sohaga u yoki bu harakat faoliyatida harakat yo‘nalishlarini tez va chaqqon o‘zgartirish, asab-muskullarni muvofiqlashtirib boshqarishni shakllantirishga oid maqsadlar kiradi. Yozuv, og‘zaki nutq malakalari hamda jismoniy tarbiya va mehnat (kasb) ta’limi doirasidagi malakalar ana shular jumlasidandir. Ta’lim oluvchilarga kasb o‘rgatish jarayoni maqsadlarini eca aynan shu maqsadlar tashkil qiladi.
Affektiv	Hissiyotli qadriyatli soha	Unga oddiy idrok qilish, qiziqish, qadriyatlar yo‘nalishlari va munosabatlarni o‘zlashtirishga tayyor bo‘lishdan boshlab, to ta’lim oluvchilarni atrof-dunyoga nisbatan hissiy-shaxsiy munocabatda bo‘lishini shakllantiruvchi maqsadlar kiradi. Qiziqish va moyillikni, u yoki bu kechinmalarga hamdard bo‘la olish, voqealarga bo‘lgan munosabat, uni anglash va faoliyatda namoyon bo‘lishini shakllantirish maqsadlari ana shular jumlasidan.

Maqsadlarning aniq, tartibli va ierarxik turkumini yaratish, avvalo pedagoglar uchun muhim hisoblanib, o‘quv jarayonida asosiy e’tiborni maqsadga qaratish lozim bo‘ladi. Pedagogik taksonomiyadan foydalangan holda nafaqat bu maqsadlarni, balki asosiy vazifalarni, bundan keyingi faoliyatining tartibi va borishini ham belgilashi mumkin, bunda pedagog va ta’lim oluvchilar hamkorligidagi faoliyatning aniqligi hamda oshkoraligi muhim hisoblanadi. Aniq maqsadlar pedagog uchun ta’lim oluvchilarning umumiy faoliyatidagi acociy yo‘nalishlarini tushuntirish, muhokama qila olish imkoniyatini beradi va o‘quv natijalarini baholash tizimi yaratiladi. Faoliyat natijalari orqali aniq ifodalangan maqsadlar, ularni xolisona baholash imkoniyatini yaratadi.

O‘quv maqsadlari taksonomiyasining nisbatan mukammal ishlab chiqilgan va keng ko‘lamda qo‘llanadigani bu kognitiv soha. Kognitiv maqsadlarga bir yoki bir necha o‘quv mashg‘uloti jarayonida erishish mumkin. Affektiv maqsadlar eca shaxs ichki rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, chuqurroq xarakterga ega. Unga qisqa vaqt ichida erishishni amalga oshirib bo‘lmaydi. Kognitiv maqsadlarni faoliyat turi ko‘rinishida ifodalash osonroq. Shuning uchun ham, affektiv maqsadlar taksonomiyasi, asosan, tarbiya natijasini pedagogik tashxislashda qo‘llaniladi, o‘qitish texnologiyasiga oid ishlanmalar eca asosan, kognitiv maqsadlar bo‘yicha yaratiladi.

3-jadval.

Blum taksonomiyasi toifalariga oid fe’llar

Bilish.	Esga tushiradi, eslab qoladi, axborot beradi, aytib beradi, takrorlaydi, tanlaydi.	Tahlil	Ajratadi, turkumlaydi, saralaydi, guruhlaydi, bo‘lib chiqadi, tizimlaydi
Tushunish	Tavsiflaydi, belgilaydi, izohlaydi, ochib beradi, qayta ishlaydi, tatbiq etadi, foydalanadi.	Sintez	Umumlashtiradi, reja tuzadi, insho yozadi, loyihalaydi, yaratadi, hosil qiladi.
Qo‘llash	Yechadi, hisoblaydi, amalga oshiradi, namoyish etadi.	Baholash	Tashhislaydi, munosabat bildiradi, isbotlaydi, nazorat qiladi, mezonga solishtiradi.

Pedagogning o‘rgatish maqsadi bilan ta’lim oluvchilarning o‘rganish maqsadi aynan teng ma’noda lekin, turlicha ifodalanadi. Ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatidagi kuzatishlari, xatti-harakatlari, o‘rganayotgan atamallari,

tayanch ibora va tushunchalar yordamida ifodalanishi maqsadga muvofiq. Ta’limda pedagogning belgilangan maqsadlari ta’lim oluvchilarning identiv maqsadlarida fe’llar orqali, ular xatti-harakatlarini tartibga soluvchi, nima qilinishini aniq bildiradigan ma’noda aks etishi lozim. Materiallarni o’rganishda ta’lim oluvchilar maqsad nimaligini tushunishi kerak. Identiv maqsadlarga erishish bu ta’limda ko’zlangan yakuniy natija bilan bog’liq. Bu maqsadlar bevosita ta’lim oluvchilar o’zlashtirish natijasi bilan bog’langan bo’lib, nazariyani amaliyot bilan bog’laydi, u pedagogning maqsadidan kelib chiqadi. O’quv materiallari bir necha mantiqan bir-biriga bog’liq kichik o’zlashtirilishi oson bo’lgan ta’lim oluvchilarga mos holda bo’laklarga bo’linadi. Mavzu rejalashiga undagi tayanch ibora va tushunchalarga asoslanib bir necha, kamida ikkita asosiy savolga bo’linadi. Mavzudagi umumiy maqsadlar pedagog tomonidan belgilanadi. Bu yerda maqsadlar ketma-ketligi hosil bo’lib, bu ularni qaysi biri avval, qaysi biri keyin kelishi tartiblanadi. Maqsadlarning tartiblanishi umumiy maqsadning yakuniy natijani olishi bilan bog’liq holda belgilanadi. Maqsadlarni taqqoslash g’oyasi shuni nazarda tutadiki, bundan co’ng ta’lim oluvchilar faoliyatini kuzatish, o’lchash vositalari orkali tushuntirish imkoni tug’iladi. Identiv maqsadlarga erishilganlik haqida ta’lim oluvchining faqat tashqi ifodalangan faoliyati va uning mahsuli (javobi, masalani yechishi, mexanizmlarni qismlarga ajratishi va yig’ishi, texnologik jarayonning borish ketma-ketligini aniqlashi) bilangina aniq hukm chiqariladi.

O’quv maqsadlarini aniqlashtirishning umumiy usuli, ularni aniq natijalarga erishishdagi harakatlarini anglatuvchi fe’llarda ifodalashdir. Masalan, ta’lim oluvchilar mavzuni mustaqil ravishda o’qib, o’rganganidan keyin: mavjud ma’lumot va xulosalarni bir-biridan farqlaydi, dalil va taxminlarni biladi, sabab, oqibat aloqalarini ajratib ko’rsatadi, mulohazalardagi xatoliklarni aniqlaydi, hodisa mohiyatiga bog’liq bo’lmagan muhim fikrlarni ajratadi, asoslangan va asoslanmay berilgan baholar chegarasini aniqlaydi, mavzu bo’yicha xulosa yozadi. Har bir pedagog o’zining shaxsiy tajribasi va fikrlashidan kelib chiqqan holda, sanab o’tilgan harakatni anglatuvchi belgilardan mosini tanlashi mumkin.

Topshiriqlar og’zaki savol-javob, yozma va test shakllarida tuzilishi mumkin. Bir maqsadga turli shakllardagi topshiriqlar tuzish ham camarali bo’ladi. Chunki, bunda ta’lim oluvchilarning muayyan topshiriqni o’zlashtirganligiga oid bilimni xolisona baholash imkoniyati yaratiladi. Og’zaki savol-javob, pedagogning ta’lim oluvchilar bilan bevosita muloqati bo’lib,

bunda savollarga berilgan javoblar baholanadi. Kuzatish va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, ta’lim oluvchining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning muhim omili, pedagogning ularga va ta’lim oluvchilarning o‘zaro bir-birlariga beradigan savollari ekanligini ko‘rsatadi. Ta’kidlanishicha, bu savollarning 80-85 foizi, faqat daliliy bilimlarnigina talab qilib, ular javob berishda xotirada qolganlarini takroran so‘zlash bilangina cheklanar ekanlar.

4-jadval.

B.Blum savollari

Taksonomiya toifalari	Savollar
Bilish	Faktli-daliliy bilishga oid savollar. Qaerda, qachon nima codir bo‘ldi? Qaerda o‘ylashgan? Qachon?
Tushunish	Ma’nosini anglashni ko‘rsatuvchi savollar. O‘z so‘zingiz bilan bayon qiling? Tafsilotini yozing? Bulardan qaysi biri namuna?
Qo‘llash	Amaliy ahamiyatga oid savollar. Qayoqda, qanday qo‘llaniladi? Bu nima uchun sodir bo‘ladi? Bu qonun qanday qo‘llanilishi mumkin?
Tahlil qilish	Yaxlitlikni tarkibiy qismlarga ajratish va ular orasidagi bog‘lanishlarni o‘rnatish)ga oid savollar. Taqqoslang? Eng muhim xususiyatlari nima? Turkumlang?
Sintez	Alohida qismlardan mantiqiy yangi yaxlitlikni vujudga keltirishga oid savollar. Rejacini tuzing? Buni siz qanday yaratgan bo‘lar edingiz? Mavzuning eng muhim jihatlarini belgilang?
Baholash	Qaror qabul qilish, xulosa yasashni uddalashga oid savollar. Bunga munosabat bildiring? Namuna talabga javob beradimi? Nima uchun?

Yozma topshiriqlar tuzish, tayanch so‘z va iboralar variantidan foydalanishni nazarda tutadi. Bu shakldagi topshiriqlarni tuzishda interfaol usullarni qo‘llab hal qilinadigan topshiriqlar miqdoriga ham e’tibor berish lozim. Chunki, bunday usullarni qo‘llash ta’lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, o‘quv materialini yuqori intellektuallik darajalarida o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Interfaol usullardan o‘quv jarayonida foydalanish ta’lim oluvchilardan ijodkorlik faoliyatini, qolaverca, bu ishlarni B.Blum taksonomiyasining yuqori tahlil, sintez va baholash darajalarida o‘zlashtirgan bo‘lishini talab qiladi. Interfaol usullarni noto‘g‘ri qo‘llash bu usullar samaradorligini pasaytirish yoki bu haqida noto‘g‘ri tushuncha paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Demak, nechta maqsad aniqlashtirilgan bo‘lsa, shuncha nazorat ishi ham ishlab chiqilishi kerak bo‘ladi. Shunday qilib, maqsad va nazorat ishi o‘rtasida uyg‘unlik hosil qilinadi. Nazorat ishlarini tanlashda albatta maqsadning xarakteri hisobga olinadi. Aniq belgilangan maqsadlar esa tekshirishni osonlashtiradi. Nazorat ishlarida turli test turlaridan foydalanish mumkin.

Shunday qilib, o‘quv mashg‘ulotlarida pedagogik maqsadlarni aniqlash, mazkur jarayonning sifat va samaradorligini oshirishda muhim hisoblanadi. Buning uchun pedagoglardan bu macalalarga ijodiy yondashuv talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bloom, B. S. Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals / B. S. Bloom, M. D. Engelhart, E. J. Furst ... [i dr.]. – David McKay Company, 1956. – Vol. Handbook I: Cognitive domain.

2. Avliyakov N.X. Новые pedagogicheskiye texnologii. Uchebnik dlya vysshix uchebnykh zavedeniy. Tashkent. 2008.

3. Allan Karrington. Pedagogicheskoye koleso. Rejim dostupa: PW_only_RUSSIAN1080. "Teoriya i praktika sovremennoy nauki" №1(19) 2017 832.

4. AllanKarrington. Pedagogicheskoye koleso. Rejim dostupa: PW_only_RUSSIAN1080. "Teoriya i praktika sovremennoy nauki" №1(19) 2017 832

5. Suyarov A.M. Formation of information and communication competence of the teacher as an one of the main tasks of modern education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Volume 4, Issue 4, April-2023. – C. 243-257.

6. Suyarov A.M. Ways and models of providing integration of information technology science with mathematical sciences. «E3S Web of Conferences». Indexed by SCOPUS and submitted for indexing to Web of Science (CPCI) «E3S Web of Conferences» 402, 03016 (2023).